



ISSN 2181-1008
DOI 10.26739/2181-1008



ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

НАУЧНОЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ



ТОМ 3, НОМЕР 1

2023



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА | BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1008-2023-1>

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.С. Даминов
Узбекистан

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Х.Б. Юнусов
Узбекистан

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.Р. Курбонов
Узбекистан

МАЪСУЛ КОТИБ | ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ | RESPONSIBLE SECRETARY:

Н. Б. Дилмуродов, Самарканд, Узбекистан

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ КОЛЛЕГИЯ:
EDITORIAL BOARD:

ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:
EDITORIAL BOARD:

Б. Т. НОРКОБИЛОВ
Ташкент, Узбекистан

Ш. А. ДЖАББАРОВ
Ташкент, Узбекистан

Б. А. ЭЛМУРАДОВ,
Ташкент, Узбекистан

Н. А. БОБОКУЛОВ,
Ташкент, Узбекистан

А. А. НУРМАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Б. Б. БАКИРОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. Б. НИЁЗОВ,
Ташкент, Узбекистан

Р. Б. ДАВЛАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Э. С. ШАПТАКОВ
Ташкент, Узбекистан

Х. С. САЛИМОВ
Самарканд, Узбекистан

М. А. РУЗИМУРАДОВ
Ташкент, Узбекистан

Д. А. АЗИМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. И. ЯТУСЕВИЧ
Минск, Республика Беларусь

Д. А. ДЕВРИШОВ
Москва, Российская Федерация

Ю. А. ЮЛДАШБОВ
Москва, Российская Федерация

Д. Н. ФЕДОТОВ
Минск, Республика Беларусь

К. Н. НОРБОВ
Самарканд, Узбекистан

С. Ю. ЮСУПОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. А. ХАМДАМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. А. ЭЛМУРАДОВ
Самарканд, Узбекистан

Б. Д. НАРЗИЕВ
Самарканд, Узбекистан

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Дилмуродов Н.Б., Ниёзов Ҳ.Б., Пардаева Ш.А., Мирзаев С.М., Бозоров Қ. СИГИРЛАРДА ПОДОДЕРМАТИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	5
2. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Yusupov Azamat Rustam o'g'li OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH.....	11
3. Ўрмонов Абдурасул Хасанович, Таштемиров Равшанбек Матлюбович СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ.....	16
4. Ниёзов Ҳаким Бақойвич, Абдиев Салоҳиддин Буранович ТУҒИШДАН КЕЙИНГИ ЭНДОМЕТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН СИГИРЛАРНИ ТУРЛИ УСУЛЛАР БИЛАН ДАВОЛАШДА УЛАРНИНГ КЛИНИК – ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	20
5. Djumanov Sobir Murodovich, Rashidov Bekjon SIGIRLARDA VOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH.....	27
6. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Chinmurodov Jahongir To'lqinjon o'gli SPORT OTLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI.....	32
7. Даминов Асадулло, Боймуродов Хусниддин, Суяров Султон, Тошқузиёв Баҳодиржон ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ СУВ ЭКОТИЗИМЛАРИДА LYMNAEIDAE (RAFINESQUE, 1815) ОЙЛАСИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРНИ ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ОРАЛИҚ ХЎЖАЙИНИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ.....	37
8. Раҷамуродов Зайнитдин Туробович, Ахроров Маъруф Насимжонович ЯНГИ ТЎҒИЛГАН ҚЎЗИЛАРНИ ТИРИК ВАЗНИ, МУТЛОҚ ВА КУНЛИК ЎСИШИНИНГ ЁШГА ОИД ДИНАМИКАСИ ЎРГАНИШ.....	42
9. Яхяев Бахтиёр Садуллаевич ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ.....	48
10. Ходжаева Насиба, Акбарова Гулирухсор, Джурабаева Дилафруз AZOLLA CAROLINIANANINING MORFOBIOLOGIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....	54
11. Qurbonova Zarnigor, Fayziyeva Sitara, Norboyev Qurbon BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI.....	60
12. Norboyev.Q.N., Safarov. Sh.I. GOLSHTIN ZOTLI SOG'IN SIGIRLAR KETOZINING KELIB CHIQISH SABABLARI.....	65
13. Safarov M.B., Turdiqulov S. BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING SOG'IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili asosida).....	69
14. Djumanov Sobir Murodovich, Imomaliyev Shohruh SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH.....	73
15. Hamroqulov N.Sh., Ergashev J. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA GIPOVITAMINOZLARNING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.....	78



UDK:619:618:636.2:616-084

Djumanov Sobir Murodovich
Sam DVMCHBU dotsent
Rashidov Bekjon
Sam DVMCHBU magist

SIGIRLARDA BOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7816535>

ANNOTASIYA

Maqolada sigirlarda bola tashlashlarni sabablari va oldini olish, davolash, profilaktik chora tadbirlari hamda bola tashlash qaysi hayvonlarda kuproq uchrashi, bo'g'ozlikning qaysi muddatlarida qanday holatlarda sodir bo'lishi, bola tashlashda qaysi usullardan va dori vositalaridn foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: abort, embrion, bola tashlash, sutsimon modda, anomalija, brusellyoz, salmonellyoz, leptosperoz, listerioz, bachadon, yo'ldosh, abortus, b'gozlik.

Джуманов Собир Мурадович
доцент Сам ГУВЖБ
Rashidov Bekjon
магистр Сам ГУВЖБ

ПРИЧИНЫ И ПРОФИЛАКТИКИ АБОРТЫ У КАРОВЫ

АННОТАЦИЯ

В статье представлена профилактика и причины аборты у коровы. В большие встречается какой животных и какого виды аборта. Первечние техники акушерские помощи при аборты и современных методов диагностики, профилактики и лечения при аборты коровы.

Ключевые слова: аборт, эмбрион, рани родов, анамалия, малочная масса, бруселлеза, салманиллеза, листериоз, лептоспироз, паслед, матки, берименност.

Djumanov Sobir Muradovich
dotsent SamDVMChBU
Rashidov Bekjon
magistr SamDVMChBU

METHODS OF SURGICAL TREATMENT OF PATHOLOGICAL BIRTH

ANNOTATION

The article presents primary care in pathological birth, incorrect lower and lateral position of the fetus, methods of obstetric care in head and side view, pathogenesis and modern methods of diagnosis and treatment of pathological birth.

Key words: cow, pathological parturition, obstetrical instruments, obstetrical rings, Basker's stick, rope, Fetotome, chain knives, locks for securing eye cup catheters.

Mavzuning dolzarbligi. Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini yanada yaxshiroq qondirish davlatimiz agrar siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish butun agrar tarmoqni rivojlantirish strategiyasining muxim qismidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda PQ -2460 son "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini isloh qilishda chuqurlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida 2016-2020 yillarda qoramollar sonini 3165 ming boshga, quy va echkilar sonini 4281 boshga va parrandalar sonini 31200 mingtaga oshirish vazifalari belgilangan. Buning natijasida shu yillar oralig'ida gusht ishlab chiqarish hajmi (tirik vazinda) 519 ming, sut 4177 ming, baliq 90 ming, asal 13,7 ming tonnaga va tuxum 4100 million donaga oshadi.

Respublikamizning chorvachilik yaxshi rivojlangan fermer xo'jaliklarida bo'g'oz sigirlar orasida, ayniqsa chetdan keltirilayotgan mahsuldor bo'g'oz sigirlarda bola tashlash kasalliklarining keng tarqalgan, kasallik turlarining sabablari, barvaqt tashxis qo'yish, davolash va guruh usulida profilaktika qilish usullari to'liq ishlab chiqilmagan. Shu sababli fermer xo'jaliklarida bo'g'oz sigirlar orasida bola tashlashni ertachi aniqlashni ishlab chiqish kerak. Bo'g'oz sigirlarni bola tashlashshi mahsuldorlikni keskin pasayishiga yani katta miqdorda iqtisodiy zararga sabab bo'ladi. Bo'g'oz sigirlarni bola tashlashni vaqtdan oldin buzoqlarni nobud bo'lishiga olib keladi.. Bo'g'oz sigirlardan sog'lom buzoqlar olishni keskin tushishiga sababdir. Xo'jalikda bosh sonini kamayishi katta iqtisodiy zarardir.

Abort (Abortus - lotincha abortoi – muddatidan oldin tug'ish) deganda - bo'g'ozlikni vaqtdan ilgari uzilishi, ya'ni homilaning nobud bo'lishi, keyin uning organizmga so'rilishi, o'zgargan homilaning bachadonda ushlanib qolishi yoki etilmagan (to'liq rivojlanmagan) tirik homilani tashqariga chiqarilishi tushiniladi.

Bola tashlash barcha qishloq xo'jalik hayvonlarida uchrashi mumkin. Shuning uchun chorvachilikka iqtisodiy jihatdan katta zarar keltiradi. Bu zarar nafaqat naslli hayvonlar sonining, balki ularning go'sht, sut, jun va boshqa mahsuldorligining keskin kamayishi bilan ham ifodalanadi. Ko'pincha bola tashlashdan so'ng hayvonda uning asorati sifatida jinsiy a'zolarining kasallari rivojlanadi, bu esa hayvonni doimiy qisirligiga olib keladi, ba'zan kasallik tufayli hayvon nobud bo'ladi. D. Xemmond abortlarning sabablarini uch asosiy guruhga bo'lishni tavsiya etadi:

1. Ota-onasidan beriladigan genetik jihatlarning etarli bo'lmasligi tufayli embrionning to'laqimmatli rivojlanmasligi;

2. Ona organizmiga kimyoviy moddalarning tushishi oqibatida kelib chiqadigan anomaliyalar;

3. Ona organizmi sekretlarining (sutsimon modda) murtakni bachadonga yopishishiga noqulay ta'siri yoki uning yomon sifatli bo'lishi.

Hozirgi paytda qishloq xo'jalik hayvonlarida bola tashlashlar etiologiyasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi: 1) yuqumsiz; 2) yuqumli; 3) invazion xarakterdagi bola tashlashlar. Barcha yuqorida ko'rsatilgan abortlarning ikki turi farqlanadi: a) idiopatik (idios- asosiy, mustaqil, shaxsiy) abortlar - homila yoki uning provizor a'zolariga spesifik etiologik omillarning bevosita ta'siri oqibatida kelib chiqadi; b) simptomatik abortlar - ona hayvon kasalliklarining yoki ularni noto'g'ri saqlash va oziqlantirishning asorati sifatida namoyon bo'ladi. Yuqumsiz kasalliklar tufayli bola tashlash hollari yuqumli va invazion kasalliklar oqibatida bola tashlashga nisbatan ko'proq uchraydi.

Yuqumli va invazion kasalliklar tufayli bola tashlash hayvonlarda biologik sabablar: urg'ochi hayvon organizmiga mikroorganizmlar, viruslar yoki zamburug'larning tushishi oqibatida kuzatiladi. Bunday bola tashlash barcha turdagi qishloq xo'jalik hayvonlarida kuzatilishi mumkin.

11. A.P.Studensov bo'yicha abortlarning tasnifi.		
Yuqumsiz abortlar	Yuqumli abortlar	Invazion abortlar
Idiopatik abortlar		
Homila va uning pardalarining tug'ma anomaliyalari	Brusellyoz, salmonellyoz, leptosperoz, listerioz	Trixomonoz, toksoplazmoz
Simptomatik abortlar		
a) bachadon, yurak, o'pka, bo'yraqlar, jigar va boshqa a'zolarining kasalliklari oqibatida ona hayvon va homila o'rtasidagi o'zaro aloqaning buzilishi; b) alimentar; v) travmatik; g) odat bo'lib qolgan; d) sun'iy	Otlar yuqumli anemiyasi, tuberkulyoz va boshqa yuqumli kasalliklar	Ona hayvonning qon parazitlar va boshqa invazion kasalliklari

Abort hamma vaqt homila va homila yo'ldoshining, ona hayvonning jinsiy a'zolari va boshqa a'zolarining kasalliklari oqibatida ona organizmi va rivojlanayotgan homila o'rtasidagi normal o'zaro aloqaning buzilishi bilan xarakterlanadi. Patogen omilning xarakteri hamda ona hayvon organizmining rezistentligiga ko'ra abortlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Odatda abortlar bo'g'oz hayvon organizmiga oziqaviy, fizikaviy, kimyoviy, transport, biologik va boshqa stress omillarning ta'siri oqibatida kelib chiqadi. Stresslar paytida ona hayvon organizmi adaptasion sidromni me'yorida kechishini ta'minlay olmaganda stressning charchash bosqichi rivojlanadi va oqibatda bo'g'ozlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari stresslar paytida gonadotrop gormonlar ishlab chiqarilishi kamayib, tuxumdonlarning gormonal funksiyasi yomonlashadi. Natijada jinsiy tizim funksiyalarining gormonal boshqarilishini kuchli buzilishlari oqibatida bola tashlash kuzatiladi. Stresslar oqibatida adrenalin, dezoksikortikosteroidlar konsentrasiyasining ortishi homila yo'ldoshiga oksitosin va esterogenlarning ta'sirini neytrallaydi, shuning uchun o'lgan homila ko'pincha turli muddatlarga bachadonda qolib ketadi. Klinik namoyon bo'lishiga ko'ra, to'la va chala abortlar farqlanadi. To'liq abort (Abortus completus) paytida to'la rivojlanmagan homilani bachadondan chiqarilishi yoki barcha homilani (ko'p bolalikda) o'lishi kuzatiladi. Chala abort (Abortus incompletus) paytida bachadondagi bitta yoki bir nechta homilaning o'lishi va bachadonda qolgan homilaning normal tug'ilishi xarakterli bo'ladi.

Sun'iy abort (Abortus artificialis) – veterinariya mutaxassislari tomonidan terapevtik yoki iqtisodiy maqsadlarda bo'g'ozlikni buzish hisoblanadi.

Veterinariya amaliyotida sun'iy abort juda kam kuzatiladi. Bu muolajani o'tkazish to'shlig'ining juda torligi va qiyshiqligi, bachadondan kuchli qon ketishida ona hayvonning hayoti xavf ostida qolishi, homila pardalari istisqosi, tug'ishdan oldin yotib qolish, ko'p bolali bo'g'ozlik paytida ona organizmining kuchli oriqlashi, osteomalyatsiya va boshqa patologik jarayonlar paytida tavsiya etiladi.

Biya va sigirlarda sun'iy abortning bachadonni mexanik yoki termik ta'sirlantirish va keyinchalik to'lg'oq va kuchanishlarni qozg'atishga asoslangan operativ usullari qo'llaniladi. Bu usullar orasida bachadon bo'ynini mexanik kengaytirib ochish usuli ko'p qo'llaniladi. Buning uchun tashqi jinsiy lablar yuvilib, hayvon tik turgan holatda fiksasiya qilingach, jinsiy lablar qin oynasi yordamida ochilib, kornsang yoki qisqich yordamida bachadonning bo'yni fiksasiya qilinib, asta-sekin tortilib, jinsiy lablardan tashqariga chiqarib olinadi. Barmoqlarni aylanma harakatlantirish bilan bachadon bo'yni ochilib, Esmarx krushkasi yordamida bir nechta litr kuchsiz dezinfeksiyalovchi eritmalar yoki osh to'zining 45-50°C haroratdagi gipertonik eritmasi yuboriladi.

Bachadonni bunday termik ta'sirlantirishda uning qisqarishi kuzatilmaganda 10-12°C haroratdagi eritmalar yuboriladi. Bachadon shilliq pardasi va xorionning o'rtasiga toza gliserin (250-500 ml) yuboriladi, bunda bachadonni ta'sirlantirib, homila yo'ldoshining homila va bachadon tomonlarini bir-biridan ajratadi, asosiysi xorionning so'rg'ichlarini suvsizlanishini ta'minlaydi. Gliserinning o'rniga lyugol eritmasi yoki boshqa dezinfeksiyalovchi eritmalar ishlatilishi mumkin.

Ba'zan biyalarda hech qanday aslahalarni ishlatmasdan barmoqlarni burg'usimon harakatlantirish bilan bachadon bo'ynini qo'l ketadigan darajada ochish mumkin bo'ladi.

Sigirlarda bo'g'ozlikning birinchi yarmida hali homila yo'ldoshining gormonal funksiyasi kuchsiz bo'lgan paytda tuxumdondagi sariq tanani to'liq ezib yuborish bilan bola tashlatishga harakat qilinadi. Sariq tanani prostaglandin F_{2a} preparatini qo'llash bilan yo'qotish mumkin.



1-rasm. Qoramolning 2,5 oylik homilasi

Bola tashlagan hayvonga yordam ko'rsatishda mutaxassis shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishi, ginekologik qo'lqoplarda ishlash kerak.

Bachadonga kaliy permanganat eritmasi (1:500) yuborilishi, so'ngra o'simlik moylarni qo'yish tavsiya etiladi. Homilaning hajmini kichiklashtirish uchun uning terisi uzunasiga kesilib, teri osti kletchatkasida yig'ilib qolgan gazlar chiqarib yuboriladi, keyin fetotomiya operatsiyasi o'tkazilib, homilaning qorni yorilib ichki a'zolari olib (eventerasiya) tashlanadi. Bachadon butunlay tozalangandan so'ng, unga burishtiruvchi sovuq eritmalar yuborilishi kerak.

O'lib qolgan homilani olib tashlashdan oldin kasal hayvonga 20%-li kofein eritmasidan 20-30 ml teri ostiga, 2-5 mln/ TB miqdorida antibiotiklar muskul orasiga, quyidagi murakkab tarkibli eritma qon tomirga yuboriladi:

Sigirga.

Rp.: Spiritus vinni rectificati 96% - 60,0

Calsii chloridi - 10,0

Glucosai - 40,0

Sol. Natrii chloridi 0,9% - 200,0

M.f. Solutio. Sterilisatae.

D.S. Vena qon tomiriga bir marta yuborish uchun.

Bachadonning qisqarishini kuchaytirish maqsadida pitutrin, oksitosin sigir va biyalarga 5-10 ml, cho'chqalarga 2 ml, qo'y va echkilarga 1 ml, urg'ochi itlarga 0,5-1 ml miqdorida 3-5 kun davomida teri ostiga kuniga 1-2 marta yuborildi.

Jinsiy a'zolar antiseptik eritmalar bilan yuviladi, keyin bachadonga furazolidon tayyoqchasi, septimetrin, ekzuter, tribrissen kabi preparatlardan 3-5 dona tashlanadi.

Mayda hayvonlarda (it, mushuk) va cho'chqalarda bola tashlatish tavsiya etilganda kesarev operatsiyasi yoki bachadonni amputatsiyasi o'tkaziladi.

Xulosa.

1. Abortlarni oldini olish uchun hayvonlarni parvarishlash va oziqlantirish zoogigiyenik qoidalariga to'liq amal qilish tavsiya etiladi.

2. Yuqumli va yuqumsiz abortlarni oldini olish, uchun karantin, hayvonlarni emlash, molxonalarni dezinfeksiya qilish kabi chora-tadbirlar bo'yicha veterinariya qonunchiligi qoidalariga rioya qilish tavsiya qilinadi.

3. Urg'ochi hayvonlarni tabiiy va sun'iy urug'lantirishda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Studensov A.N., Shipilov V.S., Subbotin L.G., Preobrajenskiy O.N. Veterinarnoye akusherstvo i ginekologiya. M.: "VO Agropromizdat", 1986.
2. Jabborov A., Madjidov F., Aminov S. Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi va sun'iy urchitishdan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent "Uzbekiston", 1997.
3. Pulatov G.S., Ata-Kurbanov Sh.B. Qishloq xo'jalik hayvonlarni bo'g'ozligini aniqlash. Samarqand, 1997.
4. Ata-Kurbanov. Qishloq xo'jalik hayvonlarning bo'g'ozlik taqvimi. YeL Yelxolding, 2004.
5. Ata-Kurbanov Sh.B. Immunobiologicheskiye aspekty povыsheniya produktivnosti karakulskix oves. Monografiya. Tashkent. "Mehnat", 1980.
6. Mamatov P.M. Mollarda mastit kasalligi. Toshkent, "Mexnat", 1990.



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000